

RABG'UZIYNING QISSASI RABG'UZIY ASARI ASOSIDA O'QUVCHILARNI MA'NAVIY BARKAMOLLIGINI OSHIRISH

Madrimova Yorqinoy Jumamurot qizi

Nukus davlat pedagogika instituti

O'zbek adabiyoti kafedrası fan kabinet mudiri

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus shahri

Annotatsiya: Qisasi ar-Rabg'uziy asari nafaqat turkiy xalqlar, balki jahon adabiyotining nodir namunasidir. Asar Sharq xalqlari adabiyotidagi "Qisas ul-anbiyo" tipli asarlar an'anasining g'oyat dilbar namunasi sifatida olamga mashhurdir. "Qisas ar-Rabg'uziy"ning ilk bora to'liq holda hozirgi adabiy tilimizga tabdil etilgani o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligining muhim yutug'idir. Unda ifodalangan olam va odam haqidagi badiiy-ma'rifiy haqiqatlar kitobxon taxayyul va tafakkur dunyosini chandon oshirishga xizmat etadi, ruhga osoyishtalik va ko'ngilga orom bag'ishlaydi.

Kalit so'zlar: hamdu sano, madh, qissa, hikoyat, hikmat, rivoyat, latifa, ishorat, nukta, she'r, bayt, bashorat, g'azal.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Oliy majlisga yo'llagan Murojaatnomasida ham ayni masalaga alohida to'xtalib: "...bugungi kunda yoshlar ma'naviyati, ularning bilim va iqtidori, zakovati, talantini ro'yobga chiqarish uchun barcha imkoniyatlarimizni safarbar qilamiz", deya ta'kidlagan da'vatlar, bugungi ta'lim-tarbiya bo'g'inida faoliyat ko'rsatayotgan barcha-barchaga dasturul amal xizmat qilishi hamda bu masalaning kechiktirib bo'lmas vazifalardan biri sifatida ta'kidlandi.

Mazkur vazifalarning samarasi o'laroq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan bola tarbiyasining oiladan boshlab to balog'at yoshiga yetgunga qadar bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni o'z ichiga qamrab olgan "Uzluksiz ma'naviy konsepsiyasi" yurtimiz tarixida ilk bor ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etildi [1]. Endilikda esa bu konsepsiyani kundalikli hayotimizda targ'ib-tashviq etish, amaliyotda qo'llash va mas'ullar tomonidan amal qilish bilan belgilanadi.

Qadimgi adabiy durdonalarning keng o'rganilishi jarayoni xalqimizning donishmand siymolari tomonidan yaratilgan badiiy asarlar bir millat yoki elatninggina emas, balki umumbashariyat e'zozlagan tuyg'ular ifodasi sifatida maydonga kelganligini ko'rsatdi. Shunday nodir adabiy yodgorliklardan biri

Nosiruddin Rabgʻuziy tomonidan hijriy 710-yilning hut oyi, milodiy 1310-yil 21-fevral – 21 mart oyida xatm qilingan “Qisas ar-Rabgʻuziy” asari hisoblanadi. Asar mazmun-mohiyati bilan tom maʼnodagi umuminsoniy maʼnaviyat va madaniyat namunasidir. Unda olam va odam siru asrori ajib badiiy lavhalarda tasvir etib berilgan. Adib tomonidan tanlangan mavzu, yaʼni nubuvvat maʼrifati badiiy talqinlari sharq xalqlari adabiyotida oʻziga xos anʼana sifatida keng tarqalgan. Nabiyalar haqidagi badiiy qissalar arabiy, forsiy, turkiy xalqlar orasida alohida bir nabiy siymo qissasi holida ham, yaxlit nubuvvat qissalari tarzida ham atroflicha tasvir etilgan. Bunday qissalarning asl manbalari Zabur, Tavrot, Injil, Qurʼon kabi samoviy kitoblar, yaʼni hazrat Alisher Navoiy taʼbiri bilan aytilganda, “qutubi osmoniy”lar boʻlib, bu manbalar hozirda ham yer yuzi aholisining asosiy qismi uchun boqiy qadriyat sifatida qabul qilingan. Sharq xalqlari ijodiyotida mavjud boʻlgan tafsir ilmining qilni qirq yoruvchi mufassirlari zahmati natijasida yuzaga kelgan sharhlar tufayli muqaddas manbalardagi nabiy siymolar haqidagi ibratli voqea va hodisalar keyinchalik badiiy qissalar tusini olgan. Ilohiy kalomdagi “qasas”larning badiiy ifodasi boʻlib sharq adabiyotida nasrning nihoyatda goʻzal namunalari vujudga kelgan. Jumladan, Muhammad Sayyid Tantoviy “Qasas al-Qurʼon”, Muhammad ibn Jarir Tabariy “Taʼrixi Tabariy”, Ibn Kasir “Al-badoyatu va nihoyat”, Qutbiddin Rovandiy “Taʼrixi anbiyo”, Muhammad Axmad Jadalmaviy “Qissahoi Qurʼon”, Rasuli Maholloti “Qasas al-Qurʼon”, Sadriddin Balogʻiy “Qasas ul-Qurʼon”, Kamol Mustafo Shokir “Qissas ul-anbiyo”, Ibn Arabiy “Fusus –al-hikam”, Makorimiy Sheroziy “Qissahoi Qurʼon”, Shazariyning “Qasas-ul-anbiyo” va boshqa shu kabi asarlar sharq badiiy qissachiligining nodir namunalari hisoblanadi. Bu anʼananing turkiy-oʻzbek xalqlari ijodidagi ifodasi ham oʻziga xosdir. Nosiruddin Burhonuddin Rabgʻuziynig “Qisas ar-Rabgʻuziy” asari ayni mavzuning betakror badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan. [2]

Asarda qissaning maydonga kelishi tarixi, yozilish jarayoni, muallif shaxsiyati aniq aks ettirilgan biografik oʻrinlar ham anchagina uchraydi. Muallif

nabiylar qissasiga ragʻbati nihoyatda baland boʻlganligini, uni yozishda kechayu kunduz behalovat ishlaganligini aytib oʻtadi. Asar muallifning fanga maʼlum boʻlgan yagona ijod namunasidir. Ijod jarayoni talabiga koʻra, har qanday badiiy asar muallif shaxsiyati haqida maʼlumot bera oladi. Agar adibning asari bitta boʻlsa, shu asarda ijodkor shaxsiyati namoyon boʻladi. Mabodo ijodkor asarlari bir necha boʻlsa, unda adib shaxsiyatiga xos qirralar shu asarlarda aks ettiriladi. Bu asar adabiy talimda yukori sinflarda urganiladi.

“Qisas ar-Rabgʻuziy” olamshumul badiiy hodisa ekanligining yana bir tomoni shundaki, unda anbiyolar qissasi oʻzaro mantiqiy bogʻlangan bir tizimda uyushtirilgan. Bu masalani sharq-islom maʼnaviyatining kashfi deb aytishimiz mumkin. Manbalarda nabiylar hayoti tarixi shu qadar murakkab ifoda etilganki, ularni bir yoʻnalishda va doirada talqin etish donishmandligi beqiyos ulkan salohiyatni talab etadi. Ayniqsa bu borada Zabur, Tavrot, Injillarda nabiylar hayot tarzlari talqinidagi ixtiloflarni va ular faoliyatida oʻzaro bogʻlanmagan alohidalikni aytib oʻtishning oʻzi masalaning naqadar chigalligini koʻrsatadi. Bu jihatlardan muallifning oʻzi Qurʼon maʼrifatiga tayanganligini uqtiradi. Shu oʻrinda muqaddas manbalarda ham nabiylar haqidagi voqeliklarning bir-birlariga yaqinligini va faqat talqinlardagina tafovutlar borligini aytib oʻtish lozim. Bu esa jahoniy qarashlarda nubuvvat maʼrifati va taʼlimotining toʻliq qaror topishi Qurʼon va undan oziqlangan adabiyot tufayli ekanligidan dalolatdir. Shu nuktai nazardan adabiy talim jarayonida ayniqsa mumtoz adabiyoti darsini tashkil qilishda oʻqituvchida diniy bilimlar asosida bilim va koʻnikmani talab kiladi. Qurʼoni karimni va uning maʼno mazmunini sharhlay olish kerak deb oʻylaman. Ammo hozirgi kunda ayniqsa adabiyot oʻqituvchisida zarur malaka koʻnikmalar yetishmayapti. Mumtoz adabiyotida diniy gʻoyalar yuksak mahorat bilan ifoda etilgan. “Qisas ar-Rabgʻuziy”ni taxlil kilib oʻrganishga xam yuksak mahorat talab qilinadi. Odam alayhissalom qissasi odamzodning yer yuzida mehnat bilan kun kechirishi qismat etilganligi bilan yangi hayotni boshlab berishi tarzida damom ettiriladi. Alloh niyatni amalga oshiradi. “Mukarram zot”ga juft yaratiladi.

Ulardan farzandlar tug‘iladi. Asarda Odamning farzandlari Qobil va Hobil haqida munглиroq qissa bayon etilsa-da, unda ham o‘ziga xos ibrat bor. “Qissasul-anbiyo”larda payg‘ambarlar qissalari ketma-ketligi ham bir oz farqlanadi. Bu holat, fikrimizcha, samoviy kitoblarda, jumladan, Qur’oni karimda nabiyalar turli o‘rinlarda zikr etilganligi bilan bog‘liq.

Asarda Rasul alayhissalomning bu haqda aytgan quyidagi fikrini eslatish yetarlidir. Rasululloh buyuradi: “Kim agar o‘nta turli baloga duchor bo‘lsa, o‘n surani o‘qisin, agarda kimki navsiboslik(manmanlik) mendan ketsin desa “Alhamdu” surasini o‘qisin, kimki o‘g‘rilardan qutulayin desa “Surat ul-baqara” surasini o‘qisin, kimki kambag‘allikdan qutulayin desa “Ol Imron” surasini o‘qisin, kimki ko‘nglimdan qayg‘u chiqsin desa “Surat ul-an‘om”ni o‘qisin, kimki ko‘nglimdan nifoq chiqsin desa “Surat ul-anfol”ni o‘qisin, kimki g‘azabim so‘nsin desa “Surat ul-asr”ni o‘qisin, kimki qayg‘u menga harom bo‘lsin desa “Alam nashrah” surasini o‘qisin, kimki kufr va shirk mendan ketsin desa “Surat ul-ixlos” surasini o‘qisin, kimki jodudan omon qolishni istasa “Surat ul-mu‘avvizatayin” surasini o‘qisin, kimki o‘n turli qayg‘u mendan ketsin desa “Yusuf” surasini o‘qisin. Shuning uchunki hamma balolar Yusuf qissasida bor”. Shundan bo‘lsa kerak Yusuf qissasi badiiy adabiyotning olamshumul mavzusiga aylanib, san‘atning barcha turlarining eng optimistik asariga aylangan. Asarda qadim hikmatshunoslikning nodir namunalari ham aks etgan. Xususan, Muso qissasida keltirilgan lavhada aytilishicha, Musoning hikmat bitilgan bitta oltin taxtasida quyidagi so‘zlar yozilgan edi: “Birinchisi: Odam farzandi o‘limni bila turib, o‘lmayman deb o‘ylaydi. Ikkinchisi: Jahannamdan qo‘rqa turib, yovuzlik qiladi. Uchinchisi: Nima qilsa, shunga javob berishini biladi. To‘rtinchisi: Alloh taolodan qo‘rqa turib, gunoh qiladi. Beshinchisi: Bu dunyoning o‘tkinchi ekanligini bila turib, unga ko‘ngil qo‘yadi”. Bu so‘zlar har qanday insonni ham hayot haqida chuqurroq mushohada yuritishga, umr mazmunini sarhisob qilib ko‘rishga undaydi. Asarda nubuvvat xayli alohida qissalarda tasvir etilsa ham, muayyan o‘rinlarda bir xalqa sifatida talqin etiladi. Buni Nuh kemasidagi temir

bogʻlarga bir yuz yigirma toʻrt ming paygʻambar nomi bitilgani lavhasi nabiyligni bir xalqa deb anglanishidan dalolatdir. Yoki Rasulullohning Meʻroj kechasida samo qatlarida oʻzga paygʻambarlar bilan muloqati tasvirida ham bu holat oʻz ifodasini topgan. Eʼtiborli jihati nabiylar qissasi alohida tasvir etilganda ham talqin nuri muhammadiya doirasida oʻzaro birlashadi. Ahli nubuvvatning dunyo adabiyotini oʻziga jalb etganligi hodisasi ayniqsa ularga inʼom etilgan ilohiy moʻjizalar talqinida yaqqol ifoda etilgan. “Qisas ar-Rabgʻuziy”da bu moʻjizalar anbiyolarning alohida bir siyrati sifatida talqin etilgan. Unda moʻjizalar mohiyati ham ochib berilgan boʻlib, ularning inʼom etilishi bejiz emasligi, chuqur mantiqqa egaligi tafsil etilgandir. Xususan, Odam alayhissalomga biror bir moʻjiza nisbat berilmaydi, balki Odamning yaratilishining oʻzi bir moʻjizadir. Shuning bilan birgalikda xayot kiyinchiliklariga duchor bulgan insonlar xar kanday najotni muammoni yechimini Kuroi karimdan topsa buladi degan fikrni ilgari suradi

Xullas, “Qisasi ar-Rabgʻuziy” nihoyatda keng qamrovli, baland mazmun yuki va yuksak badiiy salmoq kuchiga ega noyob asardir. Shu boisdan bu asarni kendan chukur oʻrganib omma orasidan kengdan targib kilishimiz maksadga muvofikdir. Bu asar haqida bir qator tadqiqotlqr olib borilgan va olib borilmoqda. Qurʼoni karimda “Biz tafakkur qilishingiz uchun oyatlarimizni yubordik”, – deyilgan oyati karima bor. Xuddi shunday “Qisasi ar-Rabgʻuziy” asari ham haqli ravishda tafakkur talab etadigan asarlar sirasidan hisoblanadi. Asardagi ibrat va foydalar nafaqat adabiy jarayon tadqiqi, balki hayotiy masalalar, tafakkur odobi uchun ham xayrlidir. U pok va ozod ruh tarbiyasiga yoʻgʻrilgan qimmatbaho durdonadir. Bugungi kun yoshlarning xar tamonlama barkamol inson bulib tabiyalanishida bu noyob durdona asos boʻla oladi. Asarni sharxlab oʻrganish uchun adabiyot oʻkituvchidan yuksak maxorat talab kiladi. Xozirgi kunda maktab adabiy talimda bu soxaga chukur etibor va chukur metodik kullannmalar ishlab chikish maksadga muvofik bulayapti. Bugungi davr talabi mezoni yoshlarning manaviy marifiy barkamolligidir.

Mumtoz adabiyotimizning yorqin namayondasi Rabguziy ijodida inson baxt-u saodati, olijnoblik, vatanparvarlik, saxiylik, mehr-muhabbat, shuningdek, ota-onaga hurmat, adolat kabi o'lmaz mavzular tarannumi bugungi kunimizda ham hech qanday ahamiyatini yo'qotgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr kuni «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1069-sonli Qarori .
2. Nosuruddin Burhonuddin Rabg'uziy. Qisasi ar-Rabg'uziy (Tabdil muallifi Usmon Qobilov). – Samarqand: Zarafshon, 2014. – B. 403.
3. Raxmanov N. O'zbek adabiyoti tarixi (Eng qadimgi davlardan 15-asrning birinchi yarmigacha) O'quv qo'llanma. –Toshkent: Sharq standart, 2017.
4. Abduraxmanov A. Turkiy adabiyotning kadimgi davri. – Toshkent, 2005.

Ájiniyaz atındađı
NÓKIS MÁMLEKETLIK
PEDAGOGIKALÍQ INSTITUTÍ
N M P I
1934